

XALQARO MIGRATSIYA VA JISMONIY SHAXSLARNING VALYUTA OPERATSIYALARI SHARHI

2026-yil Mart


I. XALQARO MIGRATSIYA VA PUL O'TKAZMALARI

Global iqtisodiy integratsiya, transchegaraviy mehnat bozorlarining ochilishi hamda raqamli moliyaviy infratuzilmaning jadal rivojlanishi xalqaro mehnat migratsiyasi va unga bog'liq pul o'tkazmalarini jahon iqtisodiyotining muhim segmentiga aylantirdi. Bugungi kunda, xalqaro migratsiya nafaqat demografik yoki ijtimoiy hodisa, balki makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi moliyalashtirish va moliyaviy vositachilik jarayonlarini shakllantiruvchi iqtisodiy omil sifatida yuzaga chiqmoqda.

Migrantlar mehnat resurslarining eng mobil segmentini tashkil etib, qabul qiluvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, yuboruvchi davlatlarda esa iste'mol, jamg'arma va investitsiya salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.


BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'ylab xalqaro migrantlar soni 304 million kishiga yetgan bo'lib, ular jahon aholisining taxminan 3,7 foizini tashkil etgan¹ (1-diagramma).

1-diagramma. Xalqaro migrantlar soni,
mln kishi



Manba: BMT ma'lumotlari (UN DESA)

2-diagramma. Xalqaro pul o'tkazmalari,
mlrd doll ekv



Manba: Jahon banki ma'lumotlari

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda xalqaro pul o'tkazmalari umumiy hajmi qariyb 900 mlrd dollarni tashkil etib, shundan 680 mlrd dollari past va o'rta daromadli mamlakatlar (LMIC) hissasiga to'g'ri kelgan² (2-diagramma).


¹ United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA) - International Migrant Stock 2024

² World bank - Migration and Development Brief, 40.

Mazkur jarayonlar xalqaro pul o'tkazmalari global iqtisodiyotda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, muhim moliyaviy ahamiyat kasb etib, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kabi barqaror va ishonchli tashqi moliyalashtirish manbai sifatidagi o'rni ortib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, pul o'tkazmalari kontrtsikl xususiyatga ega bo'lib, iqtisodiy shoklar davrida uy xo'jaliklari daromadlarini qo'llab-quvvatlaydi va ichki valyuta bozori barqarorligiga xizmat qiladi.

Ayrim o'rta daromadli mamlakatlarda xalqaro pul o'tkazmalari yalpi ichki mahsulotning 40-50 foizigacha yetib, tashqi hisob-kitoblar muvozanati, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ahamiyati muhimligini ko'rsatadi (3-diagramma).


3-diagramma. Xalqaro pul o'tkazmalari, YAIMga nisbatan, %



Manba: Jahon banki ma'lumotlari ³

2025-yilda chet eldan mamlakatga **kelib tushgan** pul o'tkazmalari 2024-yilga nisbatan 28 foizga (4,1 mlrd doll) ko'payib, **18,9** mlrd dollarni tashkil qildi (4-diagramma).

4-diagramma. 2020-2025 yillarda O'zbekistonga kelib tushgan xalqaro pul o'tkazmalari hajmi, mlrd dollar



Markaziy bank hisob-kitoblari

Mazkur mablag'lar ichki valyuta bozori muvozanatini ta'minlashda xizmat qildi.


³ World Bank - <https://data.worldbank.org/indicator/BX.TRF.PWKR.DT.GD.ZS>

II. XALQARO MIGRATSIYA GEOGRAFIYASI.


BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha xalqaro migrantlarning katta qismi yuqori daromadli mamlakatlarda jamlangan. Eng yirik migrant qabul qiluvchi davlatlar AQSH (52 mln kishidan ziyod), Germaniya (16,8 mln), Saudiya Arabistoni (13,7 mln), Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Kanada, BAA va Avstraliya (har biri 8-12 mln atrofida) xalqaro migrantni qabul qilmoqda.

Yuboruvchi mamlakatlar orasida aholisi ko'p va ish haqi nisbatan past bo'lgan davlatlar yetakchilik qiladi. Jumladan, Hindiston, Meksika, Filippin, Pokiston va Bangladesh kabi mamlakatlar global mehnat bozorida asosiy donor davlatlar sifatida shakllangan (5-6 diagramma).

5-diagramma. Migrant qabul qiluvchi davlatlar, mln kishi



6-diagramma. Migrant yuboruvchi davlatlar, mln kishi



Manba: BMT ma'lumotlari (UN DESA)

Manba: BMT ma'lumotlari (UN DESA)

O'zbekiston ham hozirgi kunda xalqaro mehnat migratsiyasi global yo'nalishlariga integratsiyalashib, mehnat muhojirlari an'anaviy davlatlar (Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya) bilan bir qatorda Yevropa va Osiyo davlatlariga yo'nalmoqda.

Shunga mutanosib ravishda, 2024-2025 yillarda O'zbekistonga kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalarining asosiy qismi ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelgan.


2025-yilda O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining o'sishiga, mehnat muhojirlari ishlaydigan mamlakatlarda ishchi kuchiga talab va ish haqlarining nisbatan barqaror darajada saqlanib qolishi bilan bir qatorda ulardagi iqtisodiy faollikning oshishi hamda milliy valyuta kurslari mustahkamlanishi ham ta'sir qildi.

Tashqi mehnat migratsiyasi geografiyasida diversifikatsiya jarayonlari davom etib, bu rivojlangan mamlakatlardan O'zbekistonga kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmlari o'sishida namoyon bo'ldi.

Xususan, transfertlar hajmi Buyuk Britaniyadan 39 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan 37 foizga (Irlandiya 2,6 barobar, Xorvatiya 2,5 barobar, Slovakiya 67 foiz, Litva 57 foiz, Niderlandiya 49 foiz, Polsha 9 foiz), AQSHdan

15 foizga hamda Janubiy Koreyadan 15 foizga oshishi mehnat migratsiyasining yangi yo'nalishlar bo'yicha kengayib borayotganini anglatadi (7-diagramma).

7-diagramma. 2020-2025 yillarda rivojlangan mamlakatlar va ayrim Osiyo davlatlaridan O'zbekistonga kelib tushgan xalqaro pul o'tkazmalari hajmi, mln dollar




Markaziy bank hisob-kitoblari

III. ISH HAQI DIFFERENSIATSIYASI.

Migratsiya qarorlarining asosiy iqtisodiy drayverlaridan biri qabul qiluvchi va yuboruvchi mamlakatlar o'rtasidagi ish haqi farqidir. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, eng yuqori o'rtacha ish haqi darajalari Yevropa (Shveysariya, Germaniya, Niderlandiya), Shimoliy Amerika (Kanada va AQSH), shuningdek, Avstraliya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda qayd etilgan (8-diagramma).

8-diagramma. 2024-2025 yillarda mamlakatlardagi oylik ish haqlari to'g'risida, dollar ekv.



Manba: Xalqaro mehnat tashkiloti o'rganishlari ⁴

⁴ ILO stat - <https://ilostat ilo org>

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD) ma'lumotlariga ko'ra, mehnat muhojirlari odatda, oylik o'rtacha 200-300 AQSH dollari miqdorida pul o'tkazib turadi⁵. Shuningdek, Oksford universiteti qoshidagi Migration Observatory ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniyada yashovchi migrantlar tomonidan yil davomida yuboriladigan o'rtacha pul o'tkazmalari bir kishi hisobida taxminan 1 000 - 3 300 funt sterling (*qariyb 4 ming AQSH dollari*)ni tashkil etgan⁶. O'tkazmalar summasi oyiga taxminan 275 funt sterlingga to'g'ri keladi.


Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda an'anaviy va bank o'tkazmalari kesimida bir qabul qiluvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik o'tkazma summasi 2-4 ming dollar ekvivalentini tashkil etadi.

IV. PUL O'TKAZMALARI KANALLARI VA TRANSCHEGARAVIY TO'LOV INFRATUZILMASI.

O'tkazmalar kanallari kesimidagi tahlillarga ko'ra, 2025-yilda jismoniy shaxslarga kelib tushgan mablag'larning 9,9 mlrd dollari yoki 52 foizi an'anaviy xalqaro pul o'tkazma tizimlari orqali (*2024 yilga nisbatan +21 foiz*) va 397 mln dollari yoki 2 foizi bank o'tkazmasi orqali (*-49 foiz*) amalga oshirilgan.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning bank kartalariga to'g'ridan to'g'ri amalga oshirilgan P2P o'tkazmalar ulushi 46 foizga yoki 8,6 mlrd dollarga yetgan bo'lib, ushbu kanal orqali kelib tushgan mablag'lar hajmi 2024-yilga nisbatan 1,4 barobarga o'sgan (*9-diagramma*).

9-diagramma. 2024-2025 yillarda o'tkazma kanallari kesimida kelib tushgan pul o'tkazmalari, mln dollar



Markaziy bank hisob-kitoblari

An'anaviy bank o'tkazmalaridan farqli ravishda, P2P o'tkazmalar ulushining jadal o'sishi raqamli moliyaviy xizmatlarning keng ommalashuvi, to'lovlarning tezkor va qulay amalga oshirilishi, shuningdek tranzaksiya xarajatlarining nisbatan kamligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, xorijda ishlayotgan muhojirlarning raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasining ortishi mazkur tendensiyaning barqaror saqlanib qolishiga qo'shimcha omil bo'lib xizmat qilmoqda.

⁵ IFAD - <https://www.ifad.org/en/w/explainers/15-reasons-remittances-matter>

⁶ The Migration Observatory at Oxford - <https://migrationobservatory.ox.ac.uk/resources/briefings/migrant-remittances-to-and-from-the-uk/>

Jahon bankining (*Remittance Prices Worldwide*)⁷ ma'lumotlariga ko'ra, 500 AQSH dollari (*o'rtacha summa*) misolida pul o'tkazishning **global o'rtacha qiymati** 2025-yil I choragida 4,26 foizni tashkil etgan. Bunda, eng arzon kanallar mobil ilova orqali amalga oshirilgan to'lovlar bo'lsa, eng qimmat kanal an'anaviy bank o'tkazmalari hisoblanadi.

2025-yil dastlabki oylarida Janubiy Koreya G20 mamlakatlari orasida 500 AQSH dollari miqdoridagi pul o'tkazmasini amalga oshirish eng arzon bo'lgan davlat sifatida qayd etilgan. Bu mamlakatda 500 dollar yuborishning o'rtacha umumiy qiymati 3,07 foizni tashkil etgan.

Keyingi o'rinlarda Saudiya Arabistoni (3,14 foiz), Avstraliya (3,54 foiz), AQSH (3,81 foiz), Buyuk Britaniya (3,93 foiz), Germaniya (4,10 foiz), Yaponiya (4,14 foiz) hamda Kanada (4,30 foiz) joy olgan.

Mazkur mamlakatlar guruhida Braziliya, Kanada, Italiya va Janubiy Afrika Respublikasida pul o'tkazmalari qiymati 2025-yil dastlabki choragidagi global o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan.

Odatda, asosiy hamkor davlatlardan O'zbekistonga yuborilayotgan P2P-o'tkazmalar bo'yicha alohida komissiya belgilanmagan bo'lib, ular bo'yicha xarajatlar mablag' yuborish jarayonida valyutaning xarid va sotish kurslari o'rtasidagi farq hisobiga shakllanadi (*vositachi banklarning komissiyasi hisobiga 2-4 foizgacha bo'lgan miqdorni tashkil etishi mumkin*).

O'zbekistondan chet elga **yuborilgan** pul o'tkazmalari hajmi 2024-yilga nisbatan 5 foizga (138,4 mln doll) qisqarib, **2,7** mlrd dollarni tashkil qildi.


V. VALYUTA AYIRBOSHLASH OPERATSIYALARI.

2025 yilda banklar hamda jismoniy shaxslar o'rtasidagi chet el valyutasi oldi-sotdi operatsiyalari aylanmasining umumiy hajmi 2024-yilga nisbatan 32 foizga (8,1 mlrd doll) ko'payib, **33,6** mlrd dollarni tashkil etdi.

Mazkur davrda banklar tomonidan jismoniy shaxslardan **21,6** mlrd dollar miqdoridagi yoki 2024-yilga nisbatan 34 foizga ko'p **chet el valyutasi xarid qilingan**.

Banklar tomonidan jismoniy shaxslarga **sotilgan** chet el valyutasi hajmi 2024-yilga nisbatan 27 foizga o'sib, **12** mlrd dollarga yetdi (10-diagramma).

10-diagramma. 2024-2025 yillarda valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmlari, mln dollar




Markaziy bank hisob-kitoblari

⁷ World Bank - <https://remittanceprices.worldbank.org/>

Valyuta oldi-sotdi operatsiyalarining 57 foizi yoki 19,3 mlrd dollari (2024-yilga nisbatan o'sish 25 foiz) valyuta ayirboshlash shoxobchalari, 41 foizi yoki 13,8 mlrd dollari (o'sish 43 foiz) masofaviy xizmat ko'rsatish (online) va qolgan 574 mln dollari (o'sish 36 foiz) 24/7 rejimda faoliyat ko'rsatuvchi bankomatlar orqali amalga oshirilgan (11-diagramma).

11-diagramma. 2024-2025 yillarda valyuta ayirboshlash operatsiyalari turlari, mln dollar



Markaziy bank hisob-kitoblari

Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari va 24/7 rejimda ishlovchi valyuta bankomatlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar ulushining izchil o'sishi aholi uchun raqamli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining kengayib borayotganini anglatadi.

Banklar tomonidan jismoniy shaxslardan **xarid qilingan** chet el valyutasi hajmi ularga **sotilgan** xorijiy valyuta hajmiga nisbatan 9,7 mlrd dollarga ko'p bo'ldi (2024 yilda mazkur ko'rsatkich 6,7 mlrd dollarni tashkil etgan). Bu o'z navbatida, ichki valyuta bozorida qo'shimcha taklif shakllanishi hamda valyuta muvozanatini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.